NODAVLAT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA BOSHQARUV HISOB TIZIMINI BARQAROR RIVOJLANISH VA RAQOBATBARDOSHLIKNI TA'MINLASH MEXANIZMI SIFATIDA TRANSFORMATSIYA QILISH	844
Xojiboyev Muxiddin Shodimuxamedovich	
BARQAROR BANK AMALIYOTLARI VA ULARNING PAST UGLERODLI IQTISODIYOTNI QO'LLAB-QUVVATLASHDAGI ROLI	850
Akmal Palvanov, Alisher Kalandarov	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KAPITAL VA AKTIVLAR MENEJMENTI: BOZOR QIYMATI HAMDA MOLIYAVIY NATIJALARNI KO'P OMILLI BAHOLASH	858
Jumatova Gulzar Mahmud qizi	



AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KAPITAL VA AKTIVLAR MENEJMENTI: BOZOR QIYMATI HAMDA MOLIYAVIY NATIJALARNI KO'P OMILLI BAHOLASH

Jumatova Gulzar Mahmud qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

mustaqil tadqiqotchi

E-mail: gulzarjumatova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola aksiyadorlik jamiyatlarida (AJ) kapital tuzilmasini shakllantirish hamda aktivlar menejmenti samaradorligining korxona bozor qiymati va moliyaviy natijalariga ta'sirini empirik jihatdan baholashga bag'ishlangan. Tadqiqot obyekti sifatida O'zbekiston fond birjasida listingga kiritilgan 25 ta aksiyadorlik jamiyatining 2018–2023-yillardagi panel ma'lumotlari tanlab olindi. Ko'p omilli regressiya tahlili yordamida aktivlar rentabelligi (ROA), xususiy kapital rentabelligi (ROE) hamda bozor qiymati ko'rsatkichi (Tobin's Q) o'zgaruvchilari o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari moliyaviy leveraj darajasi korxonaning bozor qiymatiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatishini, aktivlar aylanuvchanligi va likvidlik ko'rsatkichlari esa ijobiy hamda statistik jihatdan ahamiyatli natijalarni shakllantirishini ko'rsatdi. Shuningdek, tadqiqot yakunlari korporativ boshqaruv tizimida kapital qiymatini optimallashtirish va aksiyadorlar manfaatdorligini oshirishga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqishda muhim empirik asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: aksiyadorlik jamiyati, kapital tuzilmasi, aktivlar menejmenti, bozor qiymati, rentabellik, moliyaviy leveraj, regressiya tahlili, likvidlik, dividend, qarz, investitsiya.

Abstract. This article is devoted to the empirical assessment of the impact of capital structure formation and asset management efficiency in joint-stock companies (JSCs) on enterprise market value and financial performance. The study sample consists of panel data from 25 joint-stock companies listed on the Uzbekistan Stock Exchange for the period 2018–2023. Using multifactor regression analysis, the relationships between return on assets (ROA), return on equity (ROE), and the market value indicator (Tobin's Q) were examined.

The research findings indicate that the level of financial leverage has a certain impact on the market value of enterprises, while asset turnover and liquidity indicators demonstrate positive and statistically significant effects. The results of the study also provide an important empirical basis for developing strategies aimed at optimizing capital costs and increasing shareholder value within the corporate governance system.

Key words: joint-stock company, capital structure, asset management, market value, profitability, financial leverage, regression analysis, liquidity, dividend, debt, investment.

Аннотация. Данная статья посвящена эмпирической оценке влияния формирования структуры капитала и эффективности управления активами в акционерных обществах на рыночную стоимость предприятия и финансовые результаты. В качестве объекта исследования были использованы панельные данные 25 акционерных обществ, включённых в листинг фондовой биржи Узбекистана за 2018–2023 годы. С помощью многофакторного регрессионного анализа исследована взаимосвязь между рентабельностью активов (ROA), рентабельностью собственного капитала (ROE) и показателем рыночной стоимости компании (Tobin's Q).

Результаты исследования показывают, что уровень финансового левериджа оказывает определённое влияние на рыночную стоимость предприятия, тогда как показатели оборачиваемости активов и ликвидности демонстрируют положительное и статистически значимое воздействие. Полученные результаты могут служить важной эмпирической основой для разработки стратегий, направленных на оптимизацию стоимости капитала и повышение благосостояния акционеров в системе корпоративного управления.

Ключевые слова: акционерное общество, структура капитала, управление активами, рыночная стоимость, рентабельность, финансовый леверидж, регрессионный анализ, ликвидность, дивиденды, задолженность, инвестиции.



KIRISH

Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va investitsion jozibadorlikni oshirish jarayonlarida aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy resurslarini samarali boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi. Aksiyadorlik jamiyatlari kapitali asosan xususiy va jalb qilingan mablag'lardan tashkil topadi hamda ularning optimal nisbatini shakllantirish moliyaviy menejmentning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida korxonalar nafaqat ichki resurslarga tayanishi, balki tashqi moliyalashtirish manbalaridan oqilona foydalanish orqali aktivlar bazasini kengaytirishi zarur. Ushbu jarayonda aktivlar tarkibini (joriy va uzoq muddatli aktivlar) hamda kapital manbalarini (qarz va xususiy kapital) mutanosib boshqarish korxonaning uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini ta'minlaydi. Korxona bozor qiymatini oshirish va moliyaviy xatarlarni maqbul darajada boshqarish o'rtasidagi muvozanat bevosita aktivlar va kapital menejmenti sifatiga bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida davlat ishtirokini qisqartirish va xususiy mulkchilik munosabatlarini rivojlantirish maqsadida keng ko'lami islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur yo'nalishda qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlar korporativ sektorni transformatsiya qilish uchun muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 13.04.2021-yildagi "Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6207-sonli Farmoni¹, "Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvning zamonaviy usullarini joriy etish, ularning faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, shuningdek, minoritar aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish darajasini oshirish kapital bozorini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biridir", deb belgilangan. Mazkur huquqiy me'yor davlat aktivlarini xususiylashtirish jarayonida korxonalarning ochiq ma'lumotlar bazasini shakllantirish hamda ularning faoliyat natijadorligini xalqaro standartlar asosida baholashni nazarda tutadi. Shaffoflik darajasining oshishi esa xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun muhim omillardan biri hisoblanadi.

Kapital tuzilmasi bo'yicha qabul qilinadigan qarorlar aksiyadorlik jamiyatining kapital qiymati (WACC) va moliyaviy barqarorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Kapital tarkibida qarz mablag'lari ulushining ortishi moliyaviy xatarlar va foiz xarajatlarning ko'payishiga sabab bo'lishi mumkin. Natijada sof foyda marjasi qisqarib, korxonaning bozor qiymatiga ta'sir etadi. Shu bilan birga, faqat xususiy kapital hisobiga moliyalashtirish siyosati moliyaviy dastak (leverage) imkoniyatlaridan yetarli foydalanmaslikka olib keladi. Aktivlar menejmenti esa mavjud resurslardan foydalanish samaradorligini ifodalaydi. Aktivlar aylanuvchanligi yuqori bo'lgan korxonalarda operatsion sikl qisqaradi va pul oqimlarining harakati jadallashadi. O'zbekiston sharoitida ayrim yirik sanoat korxonalarida asosiy vositalarning eskirish darajasi va zaxiralar aylanuvchanligining pastligi ularning bozor ko'rsatkichlariga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatmoqda.

Shu sababli rentabellik, likvidlik, to'lov qobiliyati va bozor ko'rsatkichlarini bir vaqtning o'zida qamrab oluvchi kompleks modellarni qo'llash dolzarb hisoblanadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi O'zbekiston korporativ sektoridagi korxonalar ma'lumotlari asosida kapital tuzilmasi va aktivlar samaradorligining korxona rentabelligi hamda bozor qiymatiga ta'sirini empirik jihatdan tahlil qilishdan iborat. Shuningdek, tadqiqot doirasida moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari (MHXS) asosida e'lon qilingan ochiq ma'lumotlarni agregatsiya qilish va ularga iqtisodiy-matematik usullarni qo'llash orqali mahalliy aksiyadorlik jamiyatlari menejmenti uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqish ko'zda tutilgan. Mazkur tizimli yondashuv mamlakat iqtisodiyotining investitsion salohiyatini obyektiv baholash hamda moliyaviy resurslarni taqsimlash samaradorligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Korxonalar kapital tuzilmasi va aktivlar menejmenti masalalari xorijiy hamda mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan keng tadqiq qilingan. Zamonaviy korporativ moliya nazariyasining asoslari F. Modigliani va M. Miller [1] tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, ular mukammal kapital bozori sharoitida korxona bozor qiymati uning kapital tuzilmasiga bog'liq emasligini matematik jihatdan asoslab berganlar. Biroq soliqlar va moliyaviy tavakkalchilik xarajatlari hisobga olinganda korxonalar uchun optimal qarz darajasi mavjudligi ta'kidlanadi. S. Ross [2] o'zining "Signallar nazariyasi" (Signaling Theory) doirasida tashqi qarz mablag'larini jalb qilishni korxona rahbariyatining kelajakdagi yuqori daromadlilik bo'yicha bozorga beradigan ijobiy signali sifatida baholaydi. Shuningdek, R. Brealey, S. Myers va F. Allen [3] tadqiqotlarida korxonalar moliyalashtirish manbalarini tanlashda, avvalo, taqsimlanmagan foydadan, keyinchalik qarz mablag'laridan va so'nggi bosqichda yangi aksiyalar emissiyasidan foydalanishlari "Ierarxik nazariya" (Pecking Order Theory) asosida izohlangan.

Aktivlar menejmenti va korxona qiymatini baholash masalalarida E. Brigham va M. Ehrhardt [4] korxona aktivlarining har bir birligidan olinadigan operatsion foyda marjasi uning ichki qiymatini (intrinsic value) shakllantirishda muhim omil ekanligini ta'kidlaydi. Ularning fikriga ko'ra, WACC ko'rsatkichining pasayishi aktivlar rentabelligini oshirishning yagona omili bo'lib qolmay, operatsion samaradorlik ham asosiy drayverlardan

¹ <https://lex.uz/ru/docs/-5371091>



biri hisoblanadi. M. Jensen va W. Meckling [5] agentlik xarajatlari nazariyasida aksiyadorlar va menejerlar manfaatlarini o'rtasidagi tafovut aktivlardan foydalanish samaradorligiga ta'sir qilishi mumkinligini tahlil qilganlar. Mazkur muammoni kamaytirish uchun menejnlarni rag'batlantirish tizimini korxona bozor qiymati bilan uyg'unlashtirish tavsiya etiladi. E. Fama va K. French [6] tomonidan ishlab chiqilgan ko'p omilli modellar esa korxona hajmi hamda bozor va balans qiymati nisbatining aksiyalar daromadlilikiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini asoslab, aktivlarni baholash nazariyasini yanada rivojlantirgan. S. Titman va R. Wessels [7] tadqiqotlarida sanoat korxonalarida moddiy aktivlar (tangibility) ulushining yuqoriligi qarz mablag'larini jalb qilish imkoniyatlarini kengaytirishi va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashi qayd etilgan.

Mahalliy olimlar tomonidan ham O'zbekiston sharoitida korporativ moliya xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan muhim ilmiy izlanishlar olib borilgan. A. Vahabov [8] tijorat banklari va yirik aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejment tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish hamda kapital munosabatlarini erkinlashtirish iqtisodiy barqarorlikning muhim omili ekanligini ta'kidlaydi. E. Elmirzayev [9] O'zbekiston fond bozorida dividend siyosati va korporativ boshqaruv mexanizmlari o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilib, korxonalarning axborot ochiqchiligi ularning bozor kapitallashuviga sezilarli ta'sir ko'rsatishini aniqlagan. S. Toshmurodova [10] tijorat korxonalari va banklar faoliyatida likvidlik hamda to'lov qobiliyati ko'rsatkichlarini boshqarish modellarini tadqiq etib, O'zbekistonda uzoq muddatli aktivlarni moliyalashtirish uchun uzoq muddatli qarz resurslarining yetarli emasligi masalasiga e'tibor qaratgan. Uning xulosalariga ko'ra, kapital bozorining rivojlanish darajasi aktivlar rentabelligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

B. Qoraboyev [11] milliy iqtisodiyotda korxonalarning investitsion jozibadorligini baholashning ko'p omilli tizimini taklif etgan. Ushbu yondashuvda korxonalarning joriy rentabellik ko'rsatkichlari bilan bir qatorda innovatsion faollik va texnologik yangilanish darajasi ham xorijiy investitsiyalar hajmiga ta'sir qiluvchi muhim omillar sifatida yoritilgan. Q. Xoshimov [12] esa aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy xatarlarni boshqarish amaliyotini tahlil qilib, moliyaviy hisobotlarning audit sifati korporativ boshqaruv samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, audit sifati va axborot shaffofligining oshishi minoritar aksiyadorlar manfaatlarini himoya qilishga hamda korxonalarning bozor qiymatini mustahkamlashga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy va bozor natijalariga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash maqsadida miqdoriy tahlil usullaridan (Quantitative Analysis) foydalanildi. Tadqiqotning dastlabki ma'lumotlar bazasi sifatida O'zbekiston fond birjasida (UZSE) yuqori likvidlikka ega bo'lgan 25 ta aksiyadorlik jamiyatining 2019–2023-yillardagi moliyaviy hisobotlari asosida panel ma'lumotlar shakllantirildi. Tadqiqotga jalb qilingan korxonalar sanoat, bank, energetika va telekommunikatsiya kabi iqtisodiyotning turli tarmoqlarini qamrab oladi. Panel ma'lumotlardan foydalanish dinamik o'zgarishlarni kuzatish imkonini yaratish bilan birga, kuzatuvlar sonining ortishi hisobiga ekonometrik model aniqligini (degrees of freedom) oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning bog'liq o'zgaruvchilari (dependent variables) sifatida ikki turdagi ko'rsatkich tanlandi. Birinchisi, buxgalteriya natijalarini ifodalovchi aktivlar rentabelligi — ROA (Return on Assets), ikkinchisi esa bozor natijalarini aks ettiruvchi Tobin's Q koeffitsiyentidir. Erkin o'zgaruvchilar (independent variables) sifatida korxonaning kapital tuzilmasi va operatsion samaradorligini ifodalovchi quyidagi omillar tanlab olindi:

- Qarz yuki (LEV) — jami majburiyatlarning jami aktivlarga nisbati;
- Aktivlar aylanuvchanligi (ATO) — sof tushumning jami aktivlarga nisbati;
- Likvidlik (LIQ) — joriy aktivlarning joriy majburiyatlarga nisbati;
- Korxona hajmi (SIZE) — jami aktivlar hajmining natural logarifmi.

Bog'liqliklarni baholash uchun panel ma'lumotlar regressiya modellari, jumladan OLS (Ordinary Least Squares), Fixed Effects (qat'iy ta'sirlar modeli) hamda Random Effects (tasodifiy ta'sirlar modeli) usullaridan foydalanildi. Eng maqbul modelni tanlash maqsadida Hausman testi qo'llanildi. Tadqiqotda foydalanilgan asosiy ekonometrik modellar quyidagi matematik ko'rinishga ega:

$$ROA_{it} = \beta_0 + \beta_1 LEV_{it} + \beta_2 ATO_{it} + \beta_3 LIQ_{it} + \beta_4 SIZE_{it} + \mu_i + \varepsilon_{it}$$
$$TobinQ_{it} = \alpha_0 + \alpha_1 LEV_{it} + \alpha_2 ATO_{it} + \alpha_3 LIQ_{it} + \alpha_4 SIZE_{it} + \mu_i + \varepsilon_{it}$$

Bu yerda:

- i — korxona indeksi;
- t — vaqt (yil) ko'rsatkichi;
- β va α — o'zgaruvchilarning ta'sir koeffitsiyentlari;
- μ_i — kuzatilmaydigan individual ta'sirlar;
- ε_{it} — stoxastik xatolik hadidir.



Hisob-kitoblar Stata statistik dasturi yordamida amalga oshirildi. Model natijalarining ishonchligini ta'minlash maqsadida ma'lumotlar geteroskedastiklikka tekshirildi hamda standart xatoliklarni to'g'rilash uchun Robust Standard Errors usuli qo'llanildi. Shuningdek, korrelyatsiya tahlili yordamida erkin o'zgaruvchilar orasidagi bog'liqlik darajasi baholandi va multikollinearlik xavfini aniqlash uchun VIF (Variance Inflation Factor) testi qo'llanildi. Natijada model parametrlarining barqarorligi va statistik ishonchligi ta'minlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Panel ma'lumotlar asosida shakllantirilgan statistik bazaning dastlabki tavsifiy (descriptive) statistikasi korxonalarning umumiy moliyaviy holatini baholash imkonini beradi. Quyidagi 1-jadvalda tadqiqot doirasida o'rganilgan 25 ta aksiyadorlik jamiyatining 2019–2023-yillar oralig'idagi faoliyati bo'yicha jami 125 ta kuzatuv asosida shakllantirilgan asosiy o'zgaruvchilarning taqsimlanish ko'rsatkichlari keltirilgan.

Tahlil qilinayotgan davr global pandemiya va undan keyingi iqtisodiy tiklanish bosqichlarini qamrab olganligi sababli ayrim moliyaviy ko'rsatkichlarda sezilarli tebranishlar kuzatildi. Xususan, korxonalarning rentabellik darajasi, likvidlik ko'rsatkichlari hamda qarz yukida tarmoqlar kesimida farqlar yuzaga kelgan. Shu bilan birga, iqtisodiy faollikning bosqichma-bosqich tiklanishi natijasida aktivlar aylanuvchanligi va bozor qiymati ko'rsatkichlarida ijobiy tendensiyalar shakllanganligi kuzatildi.

Tavsifiy statistika natijalari korxonalar o'rtasida moliyaviy boshqaruv samaradorligi va kapital tuzilmasi bo'yicha sezilarli tafovutlar mavjudligini ko'rsatadi. Mazkur holat keyingi ekonometrik tahlillarda o'zgaruvchilar o'rtasidagi bog'liqlikni chuqurroq baholash zaruratini yuzaga keltiradi. Shuningdek, ma'lumotlarning variatsiya darajasi regressiya modellari uchun yetarli statistik asos mavjudligini tasdiqlaydi (1-jadval).

1-jadval. Tadqiqot o'zgaruvchilarining tavsifiy statistikasi²

Ko'rsatkich nomi	O'lchov birligi	Kuzatuvlar soni	Min qiymati	Max qiymati	O'rtacha qiymat	Standart og'ish
Rentabellik (ROA)	Foiz (%)	125	-8.45	24.30	5.62	6.14
Bozor bahosi (Tobin Q)	Koeffitsiyent	125	0.42	2.85	1.15	0.54
Qarz yuki (LEV)	Koeffitsiyent	125	0.12	0.91	0.58	0.22
Aylanuvchanlik (ATO)	Koeffitsiyent	125	0.05	3.12	0.94	0.65
Likvidlik (LIQ)	Koeffitsiyent	125	0.35	4.80	1.65	0.88
Korxona hajmi (SIZE)	Ln(Aktivlar)	125	21.40	28.60	24.80	1.75

1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston aksiyadorlik jamiyatlarining o'rtacha aktivlar rentabelligi (ROA) 5,62 foizni tashkil etadi. Ayrim korxonalarda iqtisodiy faollikning pasayishi kuzatilgan davrlarda moliyaviy natijalarning qisqarishi sababli minimal qiymat manfiy (-8,45%) ko'rsatkichni qayd etgan. Bozor qiymatini ifodalovchi Tobin's Q ko'rsatkichining o'rtacha qiymati 1,15 ga teng bo'lib, bu fond bozori ishtirokchilari korxonalarning balans qiymatiga nisbatan o'rtacha 15 foiz yuqori baho berishga tayyor ekanligini anglatadi. Shu bilan birga, standart og'ish ko'rsatkichining nisbatan yuqoriligi investorlar baholashlarida ma'lum tafovutlar mavjudligini ko'rsatadi.

Tahlil natijalariga ko'ra, korxonalarning o'rtacha qarz yuki 0,58 darajasida shakllangan bo'lib, bu aktivlarning qariyb 58 foizi majburiyatlar hisobidan moliyalashtirilganligini bildiradi. Mazkur holat korxonalarda moliyaviy leverage darajasining nisbatan yuqori ekanligini hamda qarz mablag'laridan faol foydalanilayotganligini ifodalaydi.

Hausman testi natijalari Random Effects modeliga nisbatan Fixed Effects modelining statistik jihatdan samaraliroq ekanligini ko'rsatdi. Shu sababli keyingi ekonometrik tahlillarda qat'iy ta'sirlar (Fixed Effects) modelidan foydalanildi. Quyidagi 2-jadvalda ROA va Tobin's Q bog'liq o'zgaruvchilari bo'yicha ko'p omilli regressiya tahlili natijalari keltirilgan (2-jadval).




2-jadval. Ko'p faktorli regressiya modellari natijalari

Erkin o'zgaruvchi	ROA Model Koeff.	t-statistika	p-qiyamat (ROA)	Tobin Q Model Koeff.	t-statistika	p-qiyamat (Tobin Q)
LEV (Qarz yuki)	-12.450	-3.85	0.001***	-0.420	-2.15	0.034**
ATO (Aylanuvchanlik)	4.120	4.60	0.000***	0.180	1.95	0.055*
LIQ (Likvidlik)	1.250	2.10	0.038**	0.210	2.75	0.007***
SIZE (Hajm)	0.850	1.45	0.150	-0.110	-1.80	0.075*
Konstanta (\$C\$)	10.200	2.30	0.024**	3.450	3.10	0.003***
R-kvadrat (\$R^2\$)	0.485	-	-	0.354	-	-

Izoh: *** 1% darajada, 5% darajada, * 10% darajada statistik ahamiyatli

Aktivlar aylanuvchanligi (ATO) va likvidlik (LIQ) ko'rsatkichlari esa ijobiy hamda statistik jihatdan ahamiyatli natijalarni qayd etdi. Xususan, aktivlar aylanuvchanligi korxona rentabelligini oshiruvchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'ldi. Bu operatsion samaradorlik va resurslardan oqilona foydalanish korxonaning moliyaviy natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Likvidlik darajasining yuqoriligi esa korxonalarning qisqa muddatli majburiyatlarni o'z vaqtida bajarish imkoniyatlarini mustahkamlab, investorlar ishonchini oshirishga xizmat qilmoqda.

Soha kesimida rentabellik ko'rsatkichlaridagi farqlarni yanada aniqroq ifodalash maqsadida quyida rasmda taqdim etiladi (1-rasm).

1-rasm. Aksiyadorlik jamiyatlari sektorlari bo'yicha o'rtacha ROE(2019–2023-yillar o'rtachasi, %)³

Grafik ma'lumotlari bank va moliya sektorida xususiy kapital rentabelligi eng yuqori darajada shakllanganligini ko'rsatadi. Bunga ushbu sohada kapital aylanuvchanligining yuqoriligi hamda majburiyatlarni boshqarish tizimining qat'iy tartibga solinishi asosiy omil sifatida xizmat qilmoqda. Moliyaviy institutlarda aktivlar va majburiyatlar o'rtasidagi muvozanatni samarali boshqarish rentabellik ko'rsatkichlarining yuqori bo'lishini ta'minlamoqda.

Sanoat va qurilish tarmoqlarida rentabellik darajasining nisbatan pastligi esa uzoq muddatli aktivlarning katta ulushi, asosiy vositalarning kapital sig'imdorligi hamda aktivlar aylanuvchanligining sekinligi bilan izohlanadi. Mazkur holat ushbu tarmoqlarda investitsiya resurslarining uzoq muddat davomida ishlab chiqarish jarayoniga bog'lanib qolishi bilan tavsiflanadi.

3 Muallif ishlanmasi



Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, korxona qiymatini oshirishda asosiy omil qarz mablag'larini haddan tashqari ko'paytirish emas, balki mavjud resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va aktivlar aylanish tezligini jadallashtirish hisoblanadi. Shu bois korporativ boshqaruv tizimida operatsion samaradorlikni kuchaytirish, aktivlar strukturasi optimalligini ta'minlash hamda likvidlikni barqaror boshqarish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida qaralishi maqsadga muvofiqdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston fond birjasida ro'yxatga olingan aksiyadorlik jamiyatlari ma'lumotlari asosida olib borilgan ushbu tadqiqot natijalari kapital tuzilmasi va aktivlar menejmenti korxona bozor qiymati hamda moliyaviy barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi. Modigliani va Miller nazariyasi mukammal bozor sharoitlarini nazarda tutgan bo'lsa-da, O'zbekiston amaliyotida qarz yukining ortishi har doim ham ijobiy leverage samarasini bermasligi, aksincha ayrim holatlarda korxona bozor qiymatiga bosim o'tkazishi ekonometrik modellar orqali aniqlandi. Bu esa mamlakatimizda moliyaviy resurslar qiymati, xususan foiz stavkalari darajasining korxonalar operatsion rentabelligiga sezilarli ta'sir ko'rsatayotganini anglatadi.

Tadqiqot natijalari shuningdek aktivlar aylanuvchanligi korxona samaradorligining eng muhim indikatorlaridan biri ekanligini ko'rsatdi. Sekin aylanuvchi moddiy zaxiralarni optimallashtirish va debitorlik qarzdorliklarini samarali boshqarish korporativ menejmentning ustuvor vazifalaridan biri bo'lishi lozim. Mazkur choralar korxonalarning likvidligini mustahkamlash, pul oqimlarini jadallashtirish hamda investitsion jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi.

Tahlil natijalariga asoslanib, aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini takomillashtirish va ularning investitsion salohiyatini oshirish bo'yicha quyidagi amaliy takliflar ilgari suriladi:

Birinchidan, korporativ boshqaruv organlari (Kuzatuv kengashi va ijroiya organi) maqsadli kapital tuzilmasini (Target Capital Structure) ishlab chiqishi va unga izchil amal qilishi zarur. Qarz mablag'larini jalb qilish bo'yicha qarorlar kapitalning o'rtacha tortilgan qiymati (WACC) loyiha ichki daromadlilik normasi (IRR)dan past bo'lgan holatlardagina qabul qilinishi maqsadga muvofiqdir.

Ikkinchidan, aksiyadorlik jamiyatlari aktivlar tarkibini optimallashtirishga alohida e'tibor qaratishi lozim. Xususan, rentabellik keltirmayotgan asosiy vositalar hamda foydalanilmayotgan tugallanmagan qurilish obyektlarini uzoq muddatli ijaraga berish yoki samarali investitsion loyihalarga yo'naltirish orqali operatsion xarajatlarni kamaytirish mumkin. Bu esa aktivlar aylanuvchanligi ko'rsatkichining oshishiga ijobiy ta'sir qiladi.

Uchinchidan, fond bozorida ochiqlik va shaffoflikni yanada kuchaytirish maqsadida MHXS asosida moliyaviy hisobotlarni tayyorlash bilan bir qatorda xalqaro kredit reytinglarini olish amaliyotini kengaytirish tavsiya etiladi. Mazkur yondashuv axborot asimmetriyasini kamaytirib, investorlarning korxonalarga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

To'rtinchidan, dividend siyosatini korxonalarning moliyaviy majburiyatlari va uzoq muddatli rivojlanish strategiyasi bilan uyg'unlashtirish zarur. Qo'shimcha aksiyalar emissiyasi orqali xususiy kapital ulushini oshirish mexanizmlaridan samarali foydalanish korxonalarning yuqori foizli tijorat kreditlariga qaramligini kamaytirishga hamda makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Modigliani, F., & Miller, M. H. (1958). The cost of capital, corporation finance and the theory of investment. *The American Economic Review*, 48(3), 261–297.
2. Ross, S. A. (1977). The determination of financial structure: The incentive-signalling approach. *The Bell Journal of Economics*, 8(1), 23–40.
3. Brealey, R. A., Myers, S. C., & Allen, F. (2020). *Principles of Corporate Finance* (13th ed.). McGraw-Hill Education.
4. Brigham, E. F., & Ehrhardt, M. C. (2013). *Financial Management: Theory & Practice* (14th ed.). Cengage Learning.
5. Jensen, M. C., & Meckling, W. H. (1976). Theory of the firm: Managerial behavior, agency costs and ownership structure. *Journal of Financial Economics*, 3(4), 305–360.
6. Fama, E. F., & French, K. R. (1992). The cross-section of expected stock returns. *The Journal of Finance*, 47(2), 427–465.
7. Titman, S., & Wessels, R. (1988). The determinants of capital structure choice. *The Journal of Finance*, 43(1), 1–19.
8. Vahabov, A. V. (2020). Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida korxonalarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash yo'llari. *Iqtisodiyot va Moliya*, 4, 15–22.
9. Elmirzayev, S. E. (2020). O'zbekiston aksiyadorlik jamiyatlarida dividend siyosati va korporativ boshqaruv mexanizmlari. *Biznes-Ekspert*, 6, 34–40.
10. Toshmurodova, S. Q. (2019). Tijorat banklari va xususiy sektor korxonalarida likvidlikni boshqarish samaradorligi. *Moliya*, 2, 55–61.
11. Qoraboyev, B. Q. (2021). Korxonalarning investitsion jozibadorligini baholashning ko'p omilli modellari va indikatorlari. *Iqtisodiyot va Ta'lim*, 3, 112–118.
12. Xoshimov, Q. X. (2022). Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy xatarlarni boshqarish va xalqaro audit standartlarining ahamiyati. *Bozor, pul va kredit*, 5, 41–48.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 5 (2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
